

AHMAD A'ZAMNING "SOYASINI YO'QOTGAN ODAM" HIKOYASIDA BADIY OBRAZ VA RUHIYAT TASVIRI

Davronova Shohsanam,

Buxoro davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Azimova Maftuna,

Buxoro davlat universiteti, Adabiyotshunoslik (o'zbek) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasida qahramonlar va ruhiyat tasviri masalasi to'g'risida so'z yuritilgan. Asardagi obrazlar tasviri va bosh qahramon ruhiyatning badiiy ifodasida yozuvchining o'ziga xos mahorati tahlillar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Badiiy obraz, ruhiyat tasviri, hikoya, badiiy ifoda, badiiy talqin, ramziylik, badiiy g'oya.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос изображения персонажей и психики в рассказе «Человек, потерявший свою тень» одного из известных представителей узбекской литературы, Ахмада Азама. На основе анализа раскрывается уникальное мастерство автора в изображении персонажей в произведении и художественном выражении психики главного героя.

Ключевые слова: художественный образ, изображение психики, рассказ, художественное выражение, художественная интерпретация, символизм, художественная идея.

Abstract. The article discusses the issue of the depiction of characters and the psyche in the story "The Man Who Lost His Shadow" by one of the famous representatives of Uzbek literature, Ahmad Azam. The author's unique skill in the depiction of characters in the work and the artistic expression of the main character's psyche is revealed on the basis of analysis.

Keywords. Artistic image, depiction of the psyche, story, artistic expression, artistic interpretation, symbolism, artistic idea.

Kirish. Zamonaviy o'zbek nasrining taniqli vakillaridan biri Ahmad A'zam ijodida hikoya janri alohida o'rin tutadi. Mavzular xilma-xilligi, uslubiy rang-baranglik, mazmuniy-teranlik adib asarlarining badiiy-estetik qimmatini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Ijodkor qahramonlar tasvirida ularning ruhiyati, ma'naviy olami, xarakterini aniq, ishonarli chizgilarda aks ettirishga va ularning jamiyat bilan munosabatidagi nozik masalalar talqiniga diqqat qaratadi. O'quvchini qiziqtiradigan dolzarb mummmolarni ilgari suradi.

Ahmad A'zam hikoyalarida voqealar shunchaki bayon etilmaydi, balki ular qahramon ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Asarlarda voqelikning tashqi tasviridan ko'ra, uning qahramon ma'naviy olamida qanday aks etishi, ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar tasviriga alohida urg'u beriladi. Shu jihatdan adib hikoyalari psixologik tahlilga boyligi bilan ajralib turib, kitobxonni mushohada chorlaydi. Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi o'zbek nasrida psixologizm, ramziy-majoziy tafakkur va ijtimoiy muhit tasvir uyg'unlikda talqin etilgan yorqin namunalardan

biridir. Hikoyada Ahmad A'zam qahramon soyasining yo'qolib qolishi tasviri vositasida yozuvchining g'oyaviy qarashlari ramziy, kinoyaviy yo'sinda aks ettirib berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Ahmad A'zam ijodi va xususan "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy manbalarda asosan yozuvchining uslubi, psixologizm va ramziylik masalalari yoritilgan. Tadqiqotchilar asarda inson ruhiyati va jamiyat munosabati o'rtasidagi ziddiyatni ochib beruvchi badiiy ifoda vositalariga alohida e'tibor qaratgan.

Adabiyotlarda hikoyadagi markaziy obrazning ichki kechinmalari, begonalashuv hissi va ruhiy iztiroblari psixologik tahlil obyekti sifatida o'rganilgan. Shuningdek, Mashhura va Barot obrazlari orqali jamiyatdagi insoniy munosabatlar, befarqlik va mehr-oqibat masalalari turlicha talqin qilingan.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili asarning ramziy-majoziy qatlamlari va psixologik tasvir usullarini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi hamda Ahmad A'zam ijodining o'zbek nasridagi o'rnini yanada kengroq tadqiq etish muhimligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tavsifiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Asarda qahramonlar tizimi va ruhiy holat tasviri badiiy matnni tahlil qilish orqali o'rganildi. Shuningdek, matnni ichki talqin qilish va obrazlar tizimini ochib berishda struktural va psixologik tahlil usullariga tayanildi. Hikoyadagi ramziy va majoziy ifodalar kontekst asosida sharhlanib, muallifning g'oyaviy-badiiy niyati aniqlashga harakat qilindi. Qiyosiy tahlil orqali asardagi obrazlar va ruhiy holat tasviri boshqa o'zbek hikoyachiligi namunalaridagi psixologik tasvir usullari bilan solishtirildi. Umumlashtirish metodi yordamida esa olingan natijalar tizimlashtirildi va ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlillar va natijalar. Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasida qahramonlar tizimi asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim o'rin tutadi. Hikoyada an'anaviy xarakterlar tizimidan ko'ra, markaziy qahramon va uning atrofida harakat qilgan tipik obrazlar orqali jamiyat va shaxs munosabatlari yoritiladi. Har bir obraz muayyan ijtimoiy qatlam vakili sifatida namoyon bo'lib, ular orqali muallif insonning ichki olami va tashqi muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi.

Hikoyaning bosh qahramoni – ismi aniq ko'rsatilmagan, asar "men" tilidan bayon etilgan. Uning soyasini yo'qotishi voqea rivojining asosiy nuqtasi bo'lsa-da, aslida bu holat uning ichki inqirozi, o'zligini anglash jarayonidagi iztiroblarning ramziy ifodasidir. Qahramon o'z holatini tushunishga urinadi, biroq aniq javob topa olmaydi, natijada ichki monologlar, iztiroblar tasviri orqali uning ruhiy kechinmalari ochib boriladi. Bu obraz o'zining murakkab psixologik tabiati bilan ajralib turadi va yozuvchi o'quvchini uning ichki dunyosiga yanada chuqurroq olib kirishga urinadi.

Hikoyada ijtimoiy muammolar fonida sevgi va insoniy munosabatlar alohida o'rin tutadi. Hikoyaning yorqin va umidbaxsh ruh baxsh etuvchi qahramoni Mashhura obrazidir. U asarda insonparvar qahramon sifatida gavdalanadi. Mashhura obrazi orqali muallif jamiyatdagi sovuqqonlik va befarqlikka qarama-qarshi ravishda insoniy mehr-oqibatning

kuchini ko'rsatadi. U qahramonni jamiyatdagi boshqa kishilar kabi rad etmaydi, balki oddiy, boricha qabul qiladi. "Sizniki bo'lmasa, mana, meniki bor-ku!... Mana, bitta soya bo'ldik!" [1.17] deydi u. Yozuvchi inson jamiyatdan topa olmagan halovatni yaqinlarining mehri, sadoqati, samimiyatidan topishi mumkinligiga ishora qiladi. Bu obraz orqali yozuvchi jamiyatdagi sovuqqonlik va begonalashuvga qarshi qo'yilgan insoniy iliqlik va mehr-muhabbatni ulug'laydi. Mashhura qahramonning ruhiy muvozanatini tiklashga yordam beruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Bu orqali yozuvchi chin muhabbat insonni har qanday tubanlikdan, muammolar o'chog'idan chiqib olishi uchun ko'maklashadigan, insonga katta bir iroda, jasorat ato etadigan kuchga ega ekanligini asoslashni maqsad qiladi.

Asardagi yana bir muhim obraz – Barot bo'lib, u bosh qahramonning qarama-qarshi qutbida turuvchi timsoldir. Barot sodda, yuzaki fikrlaydigan, chuqur tahlilga moyil bo'lmagan obrazdir. U qahramonning soyasi yo'qligini birinchi bo'lib sezgan bo'lsa-da, bu hodisaning mohiyatiga chuqur kira olmaydi, uni oddiy, qiziq holat sifatida qabul qiladi. Barot obrazi orqali muallif jamiyatdagi beparvolik, yuzaki qarash va ruhiy sezgirlikning yetishmasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, uning sodda falsafasi – "...odamning o'zi bo'lsin... Yetadi shu" [1.7] degan qarashi ham muayyan ma'noda hayotiylik kasb etadi.

Asarda epizodik qahramonlar – ishxona xodimlari, rahbarlar, komissiya a'zolari ham yozuvchining g'oyaviy maqsadiga ko'ra muhim badiiy vazifani bajarishga xizmat qiladi. Ular individual xarakterdan ko'ra, ko'proq tipik obrazlar sifatida berilgan. Masalan, rahbar obrazi byurokratik tizim vakili sifatida har qanday masalani rasmiylashtirishga moyil, muammoga insoniy emas, tizimli, belgilangan tartiblarga mosligiga qarab yondashadi. Mirqosim aka, Botir aka, Turobjon kabi obrazlar esa turli xil fikrlash tarziga ega insonlar timsolini o'zida namoyon etadi: biri g'oyaviy qolipga solingan, boshqasi nisbatan insonparvar, yana biri esa mantiqsiz takliflar bilan chiqadi. Bu obrazlar jamiyatning ko'p ovoqli, ammo bir-birini tushunmaydigan muhitini aks ettiradi.

Qahramonlarning eng muhim jihati ularning bosh qahramonga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Dastlab qiziqish, hayrat va ishonchsizlik bilan qaralgan qahramon asta-sekin jamiyat uchun odatiy holga aylanadi. Bu jarayon orqali yozuvchi insonning har qanday noodatiy holatga ham moslashib ketish xususiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qahramonning o'zi ham atrofdagilarning munosabatiga asta-sekin moslashib boradi va o'z holatiga bo'lgan munosabatlarni hazil bilan qabul qilishga o'tadi.

Asar insonning ichki olami va ruhiy kechinmalarini chuqur psixologik tahlil etishi bilan ajralib turadi. Asarda voqealar tashqi harakatdan ko'ra, qahramon ongida kechayotgan jarayonlar orqali yoritiladi. Asarda psixologik tasvir qahramonning o'z holatini anglashga urinishi orqali ochib boriladi.

Asarda voqealar bayonidan ko'ra ko'proq qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari tasviri ustuvorlik kasb etadi. Hikoyada inson ongidagi bezovtalik, tushkunlik,

iztirob betakror tarzda tasvirlanadi. Qahramon o'zini jamiyatdan ajralib qolgan, bo'lib o'tayotgan hodisalarni anglay olmaydigan tarzda his etadi.

“Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi orqali Ahmad A‘zam jamiyatning mafkuraviy bosimi hamda unga aloqador holda insonning ichki olamini chuqur psixologik tahlil qiladi. Asar o‘zining ramziy qatlamlari, psixologik tasvirning chuqurligi va ijtimoiy tanqidiy ruhi bilan o‘zbek hikoyachiligida muhim o‘rin egallaydi hamda kitobxonni inson mohiyati haqida mulohaza yuritishga undaydi. Yozuvchi qahramon ongidagi iztiroblarni ichki monolog, ramziylik asosidagi tasvir usullari orqali ochib beradi.

Qahramon ruhiyatida kechayotgan eng muhim holatlardan biri – bu noaniqlik va iztirobdir. U o‘zida sodir bo‘lgan o‘zgarishni aniq bilmaydi, ammo bu o‘zgarish uning butun borlig‘ini qamrab oladi. Ayniqsa, “nimanidir izlab chiqsangiz-da, shu izlayotganingizning nima ekanligini anglab ololmasangiz... ko‘nglingizga omonatlik kirib qoladi” [1.3] kabi fikrlar orqali inson ongidagi tushunarsiz bezovtalik, ichki bo‘shliq nihoyatda ta’sirchan ifodalanadi.

Hikoyada inson ruhiyatini tasviralashda ichki monolog usuli keng qo‘llanilib, qahramonning ruhiy kechinmalari bevosita o‘quvchiga yetkaziladi. U o‘z-o‘zi bilan muloqotda bo‘ladi, o‘z holatini izohlashga asos topishga harakat qiladi, o‘qigan kitoblarini esga oladi, biroq har safar yanada chuqurroq savollarga duch keladi. Masalan, soyasining yo‘qolganini anglagach, u nafaqat tashqi muammoni, balki o‘z mavjudligini ham shubha ostiga qo‘yadi. “Men... nega bunaqa?!” [1.6] degan qisqa, ammo kuchli savol uning ichki iztiroblarining cho‘qqisini ifodalaydi. Bu savolda hayrat, qo‘rquv va tushunmovchilik birlashib, qahramon ruhiyatining murakkabligini ko‘rsatib turadi.

Qahramonning psixologik holatida yana bir muhim jihat sifatida begonolashuv hissi ham namoyon bo‘ladi. U jamiyatdan uzoqlashib boradi. Odamlar orasida bo‘lsa-da, o‘zini yolg‘iz his qiladi. Yozuvchi insonning ruhiy yolg‘izligini tashqi yolg‘izlikdan ko‘ra chuqurroq va murakkabroq hodisa sifatida tasvirlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasidagi qahramonlar tizimi asarning badiiy g‘oyasini ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Markaziy qahramonning psixologik murakkabligi, Barotning sodda tafakkuri, Mashhuraning insonparvarligi hamda epizodik obrazlarning tipikligi orqali yozuvchi jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni teran yoritib beradi. Shu jihatdan hikoya qahramonlari nafaqat individual xarakterlar, balki muayyan ijtimoiy va ma’naviy qatlamlarning badiiy ifodasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аъзам А. Соясини йўқотган одам. – Тошкент: Шарқ, 2004. / Internet sayti: www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.
3. Faxriyor. Ham munaqqid, ham tarjimon. / Internet sayti: <https://api.ziyouz.com/uploads/books/921690/5b3c9158d2989.pdf?3T9sVtTFgfixaM2cR-ZIZ>